

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“TURIZM VA SERVIS”**

**KAFEDRASI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 338.48: 57.026(575.1)

**TIRKACHEVA FARANGIZ SUR'AT QIZI**

**MINTAQAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOTURISTIK  
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH  
(JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)**

**71010401 — Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**


I.f.d., prof. M.T. Alieva

**TOSHKENT-2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi “ Typuzi ba cepbuc  
kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.


21 -sonli bayonnoma “ 20 ” 04 2023 y.

Kafedra mudiri: i.f.d prof I.A.Axmedov

  
imzo

8.05.23  
sana

ilmiy rahbar: i.f.d prof M.T.Aliyeva

  
imzo

5.05.23  
sana

Talaba: Tirkacheva Farangiz

  
imzo

5.05.23  
sana

Dissertatsiya Magistratura bo'limida 2021 yil “ 20 ” dekabr

№ 808 V raqami bilan ro'yhatga olingan.

## **Annotatsiya**

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o'rinlarini ko'paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan yo'nalish hisoblanadi. Ilmiy ishimiz maqsadi mintaqaviy turizmni rivojlantirishda nazariy va amaliy yo'llarini ishlab chiqish va muammolarga yechim topishdan iborat.

O'z tabiatiga ko'ra turizm ma'lum bir resurslar, geografik omillar va mintaqaviy o'ziga xosliklar bilan bog'liqdir. Mamlakatning jahon turistik bozoridagi raqobatbardoshligini va turistik jozibadorligini oshirish maqsadida turizmning shakllanishi va rivojlanishini mintaqaviy yondashuv asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan O'zbekistonda mintaqaviy turizm rivojlanishiga qaratilgan yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj nazariy qarashlarni o'rganib chiqishni talab etmoqda. Ushbu muammoga oid ilmiy ishlarda mintaqaviy turizm tushunchasiga turli xil nazariy qarashlar mavjud. Bu borada to'plangan nazariy va amaliy tajribalaraning tahlilidan kelib chiqib mintaqalarda turizm rivojlanishining iqtisodiy siyosati, reja va dasturlarini ishlab chiqish talab etiladi. Mintaqaviy turizmni mohiyatan tushinishda bevosita tabiyatshunoslik fani bilan bog'lash kerak. Hududlarni yaxshi bilish va ilmiy baholashda kerak. Mintaqaviy turizm nazariyasi ilmiy ishimizga qarashlarni boshlab beradi.

## **Kalit so'zlar**

O'zbekiston Respublikasi Prezident farmon va qarorlari, iqtisodiyot, xalqaro turizm, ichki turizm, mintaqaviy turizm, ekoturizm, davlatning turizmni rivojlantirishda olib borayotgan siyosati, iqtisodiy tahlil, hududlarni turizm salohiyati, turizmda tadqiqotlar, turizm nazariyasi, turizm industriyasi, mavzu, muammo, turizmda dolzarb masalalar, aholini turizm savodxonligi.

## **Abstract**

The state policy in the field of tourism is that the tourism sector should take the lead in the complex and rapid development of regions and their infrastructure, solve current socio-economic tasks, increase jobs, ensure the diversification and development of regions, increase the income of the population, the level and quality of life, and the country's is a direction aimed at improving investment attractiveness and image. The goal of our scientific work is to develop theoretical and practical ways to develop regional tourism and find solutions to problems.

By its nature, tourism is associated with certain resources, geographical factors and regional peculiarities. In order to increase the country's competitiveness and tourist attractiveness in the world tourist market, it is appropriate to analyze the formation and development of tourism based on a regional approach. In this regard, the need to develop new approaches to the development of regional tourism in Uzbekistan requires the study of theoretical perspectives. There are different theoretical views on the concept of regional tourism in scientific works on this problem. Based on the analysis of theoretical and practical experiences collected in this regard, it is required to develop economic policies, plans and programs for the development of tourism in the regions. To understand the essence of regional tourism, it is necessary to connect it directly with the science of natural science. A good knowledge of the areas and scientific evaluation is necessary. The theory of regional tourism is the starting point for our scientific work.

## **Key words**

Decrees and decisions of the President of the Republic of Uzbekistan, economy, international tourism, domestic tourism, regional tourism, ecotourism, the policy of the state in the development of tourism, economic analysis, tourism potential of regions, research in tourism, theory of tourism, tourism industry, topic, problem, in tourism current issues, tourism literacy of the population.

## MUNDARIJA

Annotatsiya .....	
Mundarija .....	
Keltirilgan jadvallar ro'yhati .....	
Keltirilgan rasmlar ro'yhati .....	
Keltirilgan qisqartmalar .....	
<b>KIRISH</b> .....	
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi .....	
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari .....	
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....	
Tadqiqotning ob'ekti va predmeti .....	
Tadqiqotning ilmiy yangiligi .....	
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi .....	
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI</b> .....	
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi .....	
1.2. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi .....	
1.3. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi .....	
<b>II BOB. METODOLOGIYA</b> .....	
2.1. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni .....	
2.2. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar .....	
2.3. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar .....	
2.4. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi ....	
2.5. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar .....	
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR</b> .....	
3.1. O'zbekisonda mintaqaviy turizm va ekoturistik resurslarning hozirgi holati tahlili .....	
3.2. Mamlakatimiz va Jizzax viloyati ekoturistik resurslaridan samarali foydalanishda davlatning roli .....	
3.3. Yangi iqtisodiyotini rivojlantirishda Jizzax viloyati ekoturizmi resurslaridan oqilona foydalanish tahlili .....	
3.4. Ekoturizmni rivojlantirishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini tadqiq etishning ilg'or xorijiy tajribalari .....	
<b>XULOSA</b> .....	
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT RO'YXATI</b> .....	
<b>Ilovalar</b> .....	

## **KIRISH**

O'zbekistonda turistlarni jalb qiluvchi asosiy omil bu uning maftunkor tabiati va uning xilma-xilligidir. Sababi O'zbekiston iqlimi, ob havosi yil davomida dam olish va ekoturizmni rivojlantirish uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Jumladan, geografik o'rni qulay, tabiiy sharoiti va ekoturistik imkoniyatlari xilma-xil bo'lgan, sanoat rivojlangan va aholi zich yashaydigan Jizzah viloyatida ekoturlarga talab yuqori. Chunonchi, viloyatning ekoturistik salohiyati yuqori bo'lib, uni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Misol uchun, Zomin ekoturistik hududi o'zining ekoturistik salohiyati bilan viloyatning boshqa hududlaridan ajralib turadi. Eng muhimi, hududda turizmning ayniqsa, ekoturizmning barcha yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Bu borada hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ishlarini yoritadigan bo'lsak Vazirlar Mahkamasi 28.04.2021 yildagi "Zomin" turistik-rekreatsion zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 254-son qarorni ko'rsatishim mumkin.

### **Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

Mintaqaviy turizmni rivojlantirish va ekologik resurslardan samarali foydalanishda asosiy maqsad bu aholini turizm va ekologik savodxonligi ustvor vazifa hisoblanadi.

Ekoturizm O'zbekistonda katta imkoniyatlarga ega sohalardan biridir. O'zbekiston nafaqat o'zining tarixiy obidalari va arxitekturasi bilan dunyoga mashhur balki betakror tabiat maskanlari bilan turistlarni o'ziga jalb qilish imkoniga ega. Shu o'rinda ekoturizmni rivojlantirishda kadrlarni o'rni juda muhim va aholini turizm savodxonligini oshirish bugun kun mavzusidir. Aholining tabiat haqidagi bilimlari oshgani sari ekologik resurslarga bo'lgan xavf-xatar yoki salbiy ta'sir kamayib boradi.

Iqtisodiyotimiz maqsadi ham mavjud resurslardan unumli foydalangan holda inson ehtiyojlarini qondirishdan iborat.